

Tailand qirolligida O'zbekiston madaniy merosi taqdimoti o'tkazildi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2025-yilda YUNESKO bosh konferensiyasi 43-sessiyasining Samarqand shahrida o'tkazilishiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-128-sonli Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti delegatsiyasi tomonidan Tailandning Bangkok shahridagi Chulalongkorn universitetida O'zbekiston tarixi va milliy madaniyatimizga bag'ishlangan targ'ibot tadbiri tashkil etildi.

Tadbir avvalida O'zbekiston Respublikasining Bangkok shahridagi Bosh konsuli, BMTning Osiyo va Tinch okeani Iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasining (ESKATO) doimiy vakili Faxriddin Sultonov hamda institut prorektori Shohbek Ergashev so'zga chiqdi.

Tadbirda ulug' ajdodlarimizning ilmiy-ma'rifiy merosi haqida hikoya qiluvchi taqdimotlar, milliy hunarmandchilik va qandaolat mahsulotlari namunalari ko'rgazmasi namoyish etildi.

Shuningdek, institut professor-o'qituvchilari hamda talaba-yoshlari tomonidan milliy kuy-ko'shiq va raqslar hamda mumtoz g'azallardan iborat teatrlashtirilgan konsert dasturi namoyish etildi.

Vakillarimiz bugun yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, buning natijasida yuz berayotgan ulkan o'zgarishlar, O'zbekistonning turizm salohiyati, tarixiy obidalari haqida ham ma'lumot berib o'tishdi.

Quvonarli tomoni, tadbir ishtirokchilarining aksariyati yurtimiz hamda o'zbek san'ati va madaniyati to'g'risida, ayniqsa, so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar

haqida yetarli ma'lumotga ega ekanliklarini hamda bu o'zgarishlarni katta qiziqish bilan kuzatib borayotganliklarini ta'kidlab o'tishdi.

Tadbirda Chulalongkorn universiteti vakillari bilan bir qatorda turli tashkilotlari va diplomatik korpus vakillari, xorijiy oliy ta'lim muassasalari talabalari va keng jamoatchilik ishtirok etishdi.

Institut delegatsiyasi tarkibidan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artisit, Milliy qo'shiqchilik kafedrasi professori Axmatjon Dadayev (g'ijjak cholg'usi ijrochisi va xonanda), Sahna nutqi kafedrasi professori, san'atshunoslik fanlari nomzodi Go'zal Xoliqulova (boshlovchi, g'azal ijrochisi), Sahna harakati va jismoniy madaniyat kafedrasi dotsenti, san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Sardor Mannonov (boshlovchi va rejissyor), Milliy qo'shiqchilik kafedrasi katta o'qituvchisi Qahramon To'rayev (doira cholg'usi ijrochisi), Cholg'u ijrochiligi kafedrasi dotsenti Yusuf Vaxidov (nay cholg'usi ijrochisi), Folklor va etnografiya kafedrasi o'qituvchisi Oybek Xamroyev (qashqar rubobi ijrochisi va xonanda), Estrada aktyorligi san'ati ta'lim yo'nalishi talabalari Diyorabonu Olimova va Aziza Nuriddinova (milliy raqs ijrochilarini) va boshqalar o'rinn oldi. Mazkur tadbirlar davlatchiligidan rivojining uch ming yildan ziyod tarixi, jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma'naviy merosi hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijalarini xorijiy davlatlarda keng targ'ib qilish hamda ular bilan hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish maqsadida tashkil etilmoqda.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida an'anaga muvofiq Besh tashabbus olimpiadasi doirasida navbatdagi musobaqalar tashkil etildi hamda musobaqa g'oliblariga institut rahbariyati tomonidan esdalik sovg'alari diplom va kuboklar topshirildi.

Bugungi kunda "Besh tashabbus olimpiadasi" sport musobaqalari yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, iqtidorli sportchilarni saralash hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga katta hissa qo'shib kelmoqda.

□ O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida an'anaga muvofiq Besh tashabbus olimpiadasi doirasida navbatdagi musobaqalar tashkil etildi hamda musobaqa g'oliblariga institut rahbariyati tomonidan esdalik sovg'alari diplom va kuboklar topshirildi.

✓ G'oliblarni taqdirlash uchun so'zga chiqqan institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev san'at va sport doimo yonma yonligini, ijodkorning sport bilan shug'ullanishi uning ijodiy kamolotida ham muhim ahamiyatga ega ekanligini hamda

institutda talabalarni sport bilan mashg'ul bo'lishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratilganini qayd etib o'tdi.

□ Qizg'in bahslarga boy o'tgan musobaqalar yakunida g'oliblar ro'yxati quyidagicha ko'rinish oldi:

□ Futbol musobaqalarida Xalq ijodiyoti fakulteti jamoasi;

□ Volleybol musobaqalarida (qiz bolalar o'rtasida) Kutubxona-axborot faoliyati fakulteti jamoasi;

□ Shaxmat musobaqalarida (qiz bolalar o'rtasida) Rahmatova Maftuna Xalq ijodiyoti fakulteti talabasi;

□ Shaxmat musobaqalarida (o'g'il bolalar o'rtasida) Mamaraimov Bobur Xalq ijodiyoti fakulteti talabasi;

□ Shashka musobaqalarida (qiz bolalar o'rtasida) Choriyeva Madina (Kutubxona-axborot faoliyati fakulteti talabasi;

□ Shashka musobaqalarida (o'g'il bolalar o'rtasida) Ro'ziyev Elbek Teatr san'ati fakulteti talabasi;

□ Stol tennisi musobaqalarida (qiz bolalar o'rtasida) Suvanova Chexroza Xalq ijodiyoti fakulteti talabasi;

□ Stol tennisi musobaqalarida (o'g'il bolalar o'rtasida) Xasanov Og'abek Xalq ijodiyoti fakulteti talabasi.

0'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga

hindistonlik diplomat, ayni paytda Hindiston-Janubiy Koreya Do'stlik jamiyati raisi sifatida faoliyat olib borayotgan Skand Ranjal Tayal tashrif buyurdi

✓ Tashrif davomida u institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev bilan uchrashdi. Ushrashuvda rektor, mehmonni Davlatimiz rahbari tomonidan san'at va madaniyat sohalarining rivojiga qaratilayotgan e'tibor, sohada olib borilayotgan islohotlar, bugungi o'zbek san'atining yutuqlari hamda institut tarixi, faoliyati, xorijiy aloqalari, ilmiy-ijodiy sohalarda erishilayotgan yuqori natijalar bilan yaqindan tanishtirib o'tdi.

➤ Ta'kidlash o'rinniki, Skand Tayal janoblariga O'zbekiston va o'zbek madaniyati begona emas. Uzoq yillik diplomatik tajribaga ega bo'lgan mehmon 2005-2008-yillarda Hindistonnaing O'zbekistondagi elchisi sifatida faoliyat olib borgan.

✓ U Diplomatik faoliyati davomida 7 ta davlatda elchi sifatida ishlagan bo'lsa, uning uchun eng qadrlisi yurtimizdagi faoliyati bo'lganini ta'kidladi. Shuningdek, mamlakatimizda so'nggi sakkiz yilda amalga oshirilayotgan olamshumul o'zgarishlarni doimo katta qiziqish va mamnuniyat bilan kuzatib borayotganini qayd etib o'tdi.

➤ Shu bilan bir qatorda, institut faoliyati unda ijobiy taassurot qoldirgani, kelgusida Hindistonda san'at va madaniyatga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasasi bilan

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti o'rtasida hamkorlik o'rnatilsa, bu aloqalar juda istiqbolli bo'lishini va bunday hamkorlik o'rnatilishi uchun ko'mak berishga tayyor ekanligini ma'lum qildi.

«Yoshlarni ekstremizm g'oyalaridan asrash – barqarorlik omili!”, “Jaholatga qarshi ma'rifat” shiorlari ostida navbatdagi davra suhbati tashkil etildi.

Bugungi kunda yoshlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbazarlikni oldini olish, shuningdek, ularni huquqbazarlik va firibgarliklarning qurboni bo'lishlariga yo'l qo'ymaslik dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

✓ Ayni shu maqsadda bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida Ichki ishlar vazirligi akademiyasi magistratura tinglovchisi, podpolkovnik Eldor Raxmatov ishtirokida «Yoshlarni ekstremizm g'oyalaridan asrash – barqarorlik omili!”, “Jaholatga qarshi ma'rifat” shiorlari ostida navbatdagi davra suhbati tashkil etildi.

⚡ Dastlab mehmon Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor Shohbek Ergashev hamrohligida institutda olib borilayotgan o'quv jarayonlari, talabalarga yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishdi, professor-o'qituvchilar va talaba-yoshlar bilan suhbatlashdi.

Davra suhbati avvalida yig'ilganlarga jinoyatchilik va huquqbazarlikni oldini olish yuzasidan viderolik namoyish etildi.

✓ Shundan so'ng Eldor Raxmatov mavzu yuzasidan taqdimot qildi hamda talaba –yoshlar tomonidan berilgan savollarga batafsil javob berdi.

Turkiyaning Ege universiteti bilan hamkorlikda xalqaro konferensiya o'tkazildi

0'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev joriy yilning 27-28-sentabr kunlari Turkiyaning Istanbul shahrida o'tkazilgan 0'zbekiston-Turkiya III ta'lim forumi doirasida Turkiya Respublikasining Ege universiteti rektori, professor Nejdet Budak bilan uchrashib, o'zaro hamkorlik masalalarini muhokama qilgan edi. Uchrashuv so'ngida esa ikki tomonlama hamkorlikni ko'zda tutuvchi shartnoma imzolangan edi.
(https://t.me/dsmi_uz/38283)

✓ Ushbu kelishuvning amaliy ifodasi o'laroq 23-24-oktabr kunlari Turkiyaning Ege universiteti bilan hamkorlikda «Yangi media va kommunikatsiya» deb nomlangan xalqaro konferensiya tashkil etildi. Masofaviy tarzda o'tkazilgan xalqaro anjumanda 0'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, dotsent Baxtiyor Yakubov, Axborot-texnologiyalari kafedrasi mudiri, dotsent Aziza Kurbanova, ushbu kafedra professor-o'qituvchilari hamda institutimiz doktorantlari o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etishdi.

↳ Ma'lumot o'rnidagi konferensiyada Ruminiya, Venegriya, Fillippin, Hindiston, Ozarbayjon, Qozog'iston kabi davlatlarning nufuzli oliy ta'lim muassasalaridan ham vakillar qatnashdi.

□ Ege universiteti Turkiyaning Izmir shahrida joylashgan bo'lib, 1955-yilda tashkil qilingan. Universitet dunyoning TOP-1000 universitetlari orasidan joy olgan oliy ta'lim mussasasi hisoblanadi.

Otajon Dostonovning 17.00.03 – Kino san'ati. Televideniye ixtisosligi bo'yicha "Zamonaviy o'zbek badiiy kinosida operatorlik san'atining yangi tamoyillari (2000-2020-yillar)" mavzusidagi san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun

yozilgan dissertatsiyasi muhokama qilindi.

□ Kunning ikkinchi yarmida Otajon Dostonovning 17.00.03 – Kino san'ati. Televideniye ixtisosligi bo'yicha "Zamonaviy o'zbek badiiy kinosida operatorlik san'atining yangi tamoyillari (2000-2020-yillar)" mavzusidagi san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi muhokama qilindi.

Ushbu dissertatsiya ishi san'atshunoslik fanlari doktori, professor Oltinoy Tojiboyeva ilmiy rahbarligida yozildi.

↙ Himoyada ushbu dissertatsiya ishi teleoperatorlik sohasida qilinayotgan kam sonli ilmiy tadqiqotlardan ekanligi, shu barobarda, amaliyot sohasida faoliyat olib borayotgan mutaxassislarning o'z sohalarida ilmiy ishga qo'l urayotgani quvonarli hodisa ekanligiga alohida urg'u qaratildi. Shuningdek, undan O'zbekiston badiiy filmlari bo'yicha olib boriladigan istiqboldagi tadqiqotlarda, darslik, o'quv qo'llanma va turli uslubiy ko'rsatmalar yaratishda foydalanish mumkinligi ta'kidlandi.

✓ Ushbu dissertatsiya ishi ham mufaqqiyatli himoya qilindi.

Dissertatsiya himoyalari bo'lib o'tdi.

□ Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti huzurida navbatdagi san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi Ilmiy Kengash asosida bir martalik Ilmiy kengashning yig'ilishi o'tkazildi.

Unda dastlab Gavhar Nazarovaning 17.00.03 – Kino san'ati. Televide niye ixtisosligi bo'yicha "O'zbekiston zamonaviy hujjatli kinosining rivojlanish tendensiyalari evolyutsiyasi" mavzusidagi san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi muhokama qilindi.

Ushbu dissertatsiya ishi san'atshunoslik fanlari doktori, professor Muhabbat Tulyaxodjayeva ilmiy rahbarligida yozildi.

Tadqiqot o'zbek kinoshunoslik fanida ilmiy-nazariy ma'lumotlar ko'lamini kengaytiradi, filmlar tahlili, kinohujjatchilar izlanishlari, hujjatli kino tarixi va nazariyasi fanlarini o'qitishni takomillashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur tadqiqotdan kelajakda hujjatli kino tarixi va nazariyasini o'rganayotgan soha mutaxassislari, kino ijodkorlar va talaba-yoshlar muhim manba sifatida foydalanishi mumkin.

Ayni paytda yurtimizda “Madaniy meros haftaligi” tadbirlari o'tkazilmoqda.

Ma'lumki, ayni paytda yurtimizda “Madaniy meros haftaligi” tadbirlari o'tkazilmoqda.

Bugun mazkur haftalik doirasida Madaniyat vazirligi tomonidan tashkil etilgan “Yangi O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasidagi islohotlar” deb nomlangan xalqaro forum bo'lib o'tmoqda. Forumning tantanali ochilish marosimi Yoshlar ijod saroyida tashkil etildi.

Marosim yurtimizda madaniyat va san'at sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida videolavha bilan boshlandi.

Tadbirni Madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov kirish nutqi bilan ochib berib, “Yangi O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasidagi amalga oshirilayotgan islohotlar” to'g'risida taqdimot qildi.

↳ Forumda xalqaro tashkilotlardan TURKSOY Bosh kotibi Sulton Rayev, Turkiy Parlament Assambleyasi Bosh kotibi Mehmet Sureyya Er, Turkiy madaniyat va meros jamg'armasi prezidenti Aktoti Raimkulova, shuningdek, Ozarbayjonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, taniqli yozuvchi va publist O'g'uz Yunus Isahon o'g'li, TURKSOY Yozuvchilar uyushmasi raisi, qozoq shoiri, jurnalist va muharriri, Qozog'istonda xizmat ko'rsatgan xodim Esdaulet Uluqbek, Qirg'iziston xalqining “Muras” tarixiy-madaniy merosi jamg'armasi raisi, taniqli tarixchi, publisist va jurnalist Moldokasimov Qiyos, Qozon davlat madaniyat instituti rektori Axmadiyeva Roza Shayxaydarovna, Ege universiteti Adabiyot fakulteti Turk tili va adabiyoti kafedrasи mudiri Fedekar Selami o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etmoqda.

↳ Forum doirasida Nodirbek Sayfullayev Rossiya Federatsiyasining Qozon davlat madaniyat instituti rektori, professor Roza Axmadiyeva bilan uchrashuv o'tkazdi.

Uchrashuvda Nodirbek Sayfullayev, avvalo, mehmonni yurtimizda ko'rib turganidan mammun ekanligini bildirib, bugun O'zbekistonning jahon davlatlari bilan ochiqlik va oshkorlik tamoyillari asosida o'rnatilgan o'zaro manfaatli hamkorligi barcha sohalarni qamrab olganini ta'kidladi.

Jumladan, mamlakatimiz ta'lrim, san'at va madaniyat sohasida ham bir qancha yirik tadbirlarga mezbonlik qilayotgani, bu tadbirlarda dunyoning sohaga oid nufuzli tashkilotlar rahbarlari ishtirok etib, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni yuqori baholayotgani va hamkorlik takliflarini

bildirayotganini aytib o'tdi.

O'z navbatida, Roza Axmadiyeva yana bir bor yurtimizda bo'lib turganidan mammun ekanligini, bugun O'zbekiston tez suratlar bilan rivojlanib borayotgani, oxirgi tashrifidan so'ng o'tgan qisqa davrda ham ulkan yangilanishlar bo'layotganini mammuniyat bilan qayd etdi

Shuningdek, uchrashuvda ikki oliy ta'lim muassasining kelgusi hamkorlik aloqalarini yanada chuqurlashtirish, avval erishilgan kelishuvlar doirasida bиргаликда amalga oshiriladigan ishlarni jadallashtirish hamda hamkorlik aloqalarini yangi darajaga olib chiqish masalalari muhokama qilindi.

Bundan tashqari, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori forumda mehmon bo'lib turgan TURKSОY tashkiloti Bosh kotibi Sulton Rayev hamda Turkiyaning Ege universiteti Turk tili va adabiyoti kafedrasи mudiri, filologiya fanlari doktori, professor Fedekar Selami bilan uchrashib, fikr almashdi.